

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING SHAXSIY FAZILATLARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Amirova Nodira Shamshiyevna

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qiladi. Ishda o'qituvchining emotsional barqarorligi, sabr-toqat, kommunikativ va ijodiy ko'nikmalari, shuningdek, professional etik qadriyatlarining o'quvchilarning bilim olish jarayoni va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada shaxsiy fazilatlarning pedagogik jarayonga ta'siri, ularni rivojlantirish usullari va o'qituvchilar kasbiy o'sishidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari o'quvchilarning motivatsiyasi, muloqot qobiliyati va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, shaxsiy fazilatlar, pedagogik jarayon, emotsional barqarorlik, sabr-toqat, kommunikativ ko'nikmalar, ijodiy yondashuv, etik qadriyatlar, o'quvchilarning rivojlanishi, motivatsiya.

Kirish

Boshlang'ich ta'lim shaxsning asosiy bilim, ko'nikma va ijtimoiy malakalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'qituvchi, balki tarbiyachi, rahbar va psixolog sifatida ham rol o'ynaydi. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari (psixologik barqarorlik, sabr-toqat, ijodiy yondashuv, kommunikativ ko'nikmalar) o'quvchilarning o'qish jarayoniga va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari pedagogik jarayonning sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehribon va ishonchli o'qituvchilar o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi [2]. Shu bois, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari rivojlantirish va baholash pedagogik amaliyotda katta ahamiyatga ega.

Yevropa tadqiqotchilari, V.A. Adolf, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.L. Pupysheva, G.S. Savolainen, L.V. Shkerin va boshqalar kasbiy kompetentlikning har xil turlarini ajratadilar: metodik, innovatsion, psixologik, kreativ, kommunikativ va boshqalar. Yuqorida keltirilganlar orasida o'qituvchining metodik kompetentligi alohida o'rin tutadi, chunki u boshqa bir qator kompetensiyalarni o'z ichiga oladi, qo'shimcha ravishda, aynan uning darajasi ta'lim sohasidagi mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini aniqlaydi.

Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning poydevori boshlang'ich talimda beriladi. Shaxs ongi va uning dunyoqarashining rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham aynan shu bosqichda beriladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishlari ular ta'lim tarbiya berayotgan oquvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining metodik kompetentligi haqida bir qancha tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida turlicha fikr bildirganlar. Hususan, O.V.Tumashevaning fikricha, o'qituvchining metodik kompetentsiyasi metodik bilim, ko'nikma va faoliyat uslublariga egalik qilishni, ularning kasbiy faoliyati uchun ham, jamiyatdagi o'zaro aloqalar uchun ham ularning qiymatini tan olishni, uslubiy muammolarni hal qilish tajribasi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtirishga tayyorligi va qobiliyatini nazarda tutadigan shaxsning integral xarakteristikasi sifatida qaraydi[1].

T. Gushchina metodik kompetentlikni o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatining integratsiyalashgan ko'p darajali professional ahamiyatli xususiyati, ishlab chiqarish tajribasini umumlashtirib, o'qituvchining metodologiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda egallash va kasbiy-pedagogik faoliyat metodlarining maqbul kombinatsiyasi sifatida tavsiflaydi[4].

I.Kovaleva metodik kompetentsiyani o'qituvchining ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarining ajralmas xususiyati deb hisoblaydi, bu metodik, uslubiy va tadqiqot bilimlari, ko'nikmalari, tajribasi, motivatsiyasi, qobiliyati va ilmiy, uslubiy va pedagogik faoliyatda ijodiy o'zini o'zi amalga oshirishga tayyorligining tizimli darajasini aks ettiradi[4]. O'qituvchining metodik kompetentsiyasining shaxsiy tarkibiy qismlarini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi uning metodik fikrlashi va metodik madaniyatini rivojlantirishdir.

O'qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil qilish asosida, L.V. Shkerina tomonidan taklif qilingan kasbiy-pedagogik kompetensiya tuzilmasi asosida, o'qituvchining metodik kompetentsiyasi uchta tarkibiy qismga ajratilgan: kognitiv, faollik va ijtimoiy-shaxsiy tarkibiy qism[2].

O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari — dars davomida o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning savollariga aniq javob berish, hamkorlik va sinfdagi ijtimoiy muhitni ijobiy shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy ko'nikmalar o'quvchilarga o'zaro hurmat, do'stona munosabat va guruhda ishlash qobiliyatini o'rgatadi [3]. Masalan, interaktiv darslarda o'quvchilar bir-biri bilan guruh bo'lib ishlaganda, o'qituvchi ularni boshqaradi, muloqotni rag'batlantiradi va nizolarni hal qiladi.

Ijodiy pedagogik yondashuv darslarni qiziqarli va samarali o'tkazishga imkon beradi. O'qituvchi darsni o'quvchilarning qiziqishlariga moslashtirib, o'yinlar,

loyihalar va interaktiv mashqlar orqali bilimlarni mustahkamlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va yangilikka intilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [4]. Masalan, boshlang'ich sinf darslarida vizual materiallar, taxtada rasm chizish yoki rol o'yinlari qo'llanilishi o'quvchilarning diqqatini oshiradi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

O'qituvchi kasbiy etikani hurmat qilishi, o'z ishiga sadoqatli bo'lishi va doimiy o'zini rivojlantirishga intilishi muhimdir. Etik fazilatlar o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatadi va ular uchun pedagogik model bo'lib xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, professional fazilatlar o'qituvchining o'quv dasturini samarali rejalashtirish, baholash va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari ta'lim jarayonining samaradorligi va sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional barqarorlik, sabr-toqat, kommunikativ ko'nikmalar, ijodiy yondashuv va professional etik qadriyatlar o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Sabrli va xotirjam o'qituvchi sinf muhitini ijobiy qiladi, kommunikativ ko'nikmalarga ega o'qituvchi o'quvchilarni muloqotga rag'batlantiradi, ijodiy yondashuv esa darslarni qiziqarli va motivatsion qiladi.

Shuningdek, o'qituvchining etik va professional fazilatlari o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va kasbiy rivojlantirish jarayonida ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va baholash alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. О.В. Тумашева О м е то д и ч е с к о й к о м п е т е н т н о с т и у ч и т е л я / В е с т н и к К Г П У и м. В. П. А с т а ф ь е в а. М е т о д и к а п р е п о д а в а н и я. 2009 (1).
2. Шкерина, Л.В. Мониторинг качества профессионально-педагогической подготовки будущего учителя в педагогическом вузе: учебно-метод. пособие / Л.В. Шкерина, В.А. Адольф, Г.С. Саво- лайнен, М.Б. Шашкина, М.В. Литвинцева; Краснояр. гос. ун-т им. В.П. Астафьева. - Красноярск, 2004. - 244 с.
3. О. П. Филатова Процесс формирования методической компетенции педагогов при освоении аудиовизуальных технологий обучения. Научно-теоретический журнал Выпуск. 1(14).2013
4. Е В Мальцева. Развитие профессиональной компетентности читателей начальных классов в системе непрерывного педагогического образования / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2006 -6с
5. Маркова, А.К. Психология труда учителя / А.К. Маркова. - М.: Просвещение, 1993. - 192 с